

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2025

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY





NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTNOMASI

Bosh muharrir

Kirgizbayev Abdugaffor
Karimjonovich
tarix fanlari doktori, professor

Mas'ul muharrir

Nazarov Abdug'affor
Abdujabborovich, geografiya
fanlari doktori, professor

Mas'ul muharrir o'rinbosari

Imomov Otabek
Normirzayevich
biologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

Texnik muharrir

Xoshimov Sardorbek
Nozimjon o'g'li

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ"

2019-yildan boshlab O'zbekiston
Respublikasi Oliy attestatsiya
komissiyasi Rayosati qarori
bilan quyidagi fan sohalari
bo'yicha OAKning
dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya
etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

01.00.00-Fizika-matematika
fanlari (14)

02.00.00-Kimyo fanlari (18)

03.00.00-Biologiya fanlari (17)

09.00.00-Falsafa fanlari (24)

10.00.00-Filologiya fanlari (26)

13.00.00-Pedagogika
fanlari (30)

Tahrir hay'ati a'zolari

Fizika-matematika fanlari

Xatamov Nosirjon Muydinovich, fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Abdulazizov Baxromjon Toshmirmirza o'g'li, fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Sattarov Iskandar Abu-aliyevich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Dexqonov Farrux Nuriddin o'g'li, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Boytilayev Dilmurod Axmataliyevich, fizika-matematika fanlari nomzodi, katta ilmiy
xodim
Baymatov Paziljon Jamoldinovich, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Davlatov Abror Borijon o'g'li, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori dotsent
Inoyatov Shukurillo Turg'unboyevich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent
Jalolov Ravshan Maxmudjonovich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent
Xolboyev Azamat G'anisherjon o'g'li, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Maxammadaliyev Muxtor Tursunmuxammad o'g'li, fizika-matematika fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Kimyo fanlari

Abdullayev Shavkat Vaxidovich, kimyo fanlari doktori, professor
Sultonov Boxodir Elbekovich, kimyo fanlari doktori, professor
Karimov Abdurashid Musaxonovich, kimyo fanlari doktori, professor
Xolmatov Dilshod Sottorjonovich, texnika fanlari doktori, dotsent
Sattarov Tulqinjon Abdusattor o'g'li, texnika fanlari nomzodi, dotsent
Muradov Murod Toxirjonovich, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori
Rasulov A'zamjon Avazjonovich, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Biologiya fanlari

Tojibayev Komiljon Sharobiddinovich, biologiya fanlari doktori, professor, akademik
Dexqonov Davron Burxonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent
Batoshov Avazbek Risqulovich, biologiya fanlari doktori, professor
Turginov Orzimat Turdimatovich, biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Komilov Doniyor Jo'rayevich, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Egamberdiyev Mehmonjon Xudoyberdiyevich, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent
Xoshimov Xushbaxt Rustamjon o'g'li, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Texnika fanlari

Ataxanov Shuhrat Nuriddinovich, texnika fanlari doktori, professor
Abdullayev Olim Gulamjanovich, texnika fanlari doktori, dotsent
Dadaxanov Musoxon Xoshimxonovich, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Jo'rayev Sherali Umarjonovich, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Qishloq xo'jaligi fanlari

Sulaymonov Inomjon Jamoldinovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent
Turg'unov Muzaffar Mirzaraxmatovich, qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori

Tarix fanlari

Rasulov Abdullajon Nuritdinovich, tarix fanlari doktori, professor
Dexkanov Narimon Burxonjonovich, siyosiy fanlari doktori, professor
Haydaraliyev Shuhrat Abdulazizovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Madraximov Zoxid Sharofovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Xalmuratov Baxtiyor Rejaviyevich, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Erqo'ziyev Anvarjon Ashurovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
To'xtabayev A'zamjon Sharipxo'jayevich, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

“NamDU ilmiy axborotnomasi –
Научный вестник НамГУ”
jurnali O‘zbekiston Matbuot va
axborot agentligining
17.05.2016-yildagi
08-0075 -raqamli guvohnomasi
hamda O‘zbekiston
Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
(AOKA) tomonidan 2020-yil
29-avgust kuni
1106-sonli guvohnomaga binoan
chop etiladi. “NamDU Ilmiy
Axborotnomasi” elektron nashr
sifatida xalqaro standart turkum
raqami
(ISSN-2181-1458) ga ega.

Ilmiy axborotnomaning
2025-8-soni NamDU
Muvofiqlashtiruvchi
Kengashining 2025-yil
30-avgustdagi 9-sonli
yig‘ilishida muhokama qilinib,
ilmiy to‘plam sifatida chop
etishga tavsiya etilgan
(Bayonnoma № 9).
Maqolalarning ilmiy saviyasi va
keltirilgan ma’lumotlar uchun
mualliflar javobgar hisoblanadi.
Jurnal har oyda o‘zbek, rus va
ingliz tillarida elektron shaklda
chop etiladi.

**Maqolalar quyidagi rasmiy
web sahifa orqali qabul
qilinadi:**
journal.namdu.uz

Tahririyat manzili:
Namangan shahar, Boburshox
ko‘chasi, 161-uy
e-mail: science@namdu.uz

Iqtisodiyot fanlari

Mahmudov Bahriddin Jo‘rayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Baymirzayev Dilmurod Nematovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Yoqubjonova Xulkaroy Yoqubovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Falsafa fanlari

Talapov Baxriddin Alijanovich, falsafa fanlari doktori, professor
Jo‘rayev Ro‘zimat To‘xtasinovich, siyosiy fanlari doktori, professor
Gaffarova Gulchehra Gulamjanovna, falsafa fanlari doktori, professor
Zamilova Rimma Ramiliyevna, pedagogika fanlari doktori, professor
G‘apparov Elyorjon Otabekovich, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Sodirjonov Muxriddin Maxamadaminovich, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent
Muydinova Moxira Mukumjanovna, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Filologiya fanlari

Uluqov Nosirjon Muxammadaliyevich, filologiya fanlari doktori, professor
Jafarov Botir Sattarovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sadikov Zoxid Yaqubjanovich, filologiya fanlari doktori, professor
Dosbayeva Nargiza Turg‘unpo‘latovna, filologiya fanlari doktori, professor
Tojiboyev Ilxomjon Usmonovich, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Karimova Farida Isakovna, filologiya fanlari doktori, dotsent
Siddiqov Qosimjon Abilovich, filologiya fanlari nomzodi, professor
Darvishov Ibroxim O‘rmanovich, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Yuldashev Otabek Toshpulat o‘g‘li, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Geografiya fanlari

Jumaxanov Shavkatjon Zairjanovich, geografiya fanlari doktori, dotsent
Mirzaaxmedov Xamidullo Saydamatovich, geografiya fanlari nomzodi, dotsent
Soliyev Iqboljon Raxmonberdiyevich, geologiya-minerologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori, PhD

Pedagogika fanlari

Asqarova O‘g‘iloy Mamashakirovna, pedagogika fanlari doktori, professor
Xujamberdiyeva Shaxnoza Kupaysinovana, pedagogika fanlari doktori, professor
Ergashev Bobir Baxodirovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Muminova Dilafruz Akbaraliyevna, pedagogika fanlari doktori, dotsent
Ismoilov Turobjon Umirzaqovich, pedagogika fanlari nomzodi, professor
Hamidova Muxayyoxon Obidovna, filologiya fanlari nomzodi, professor
Shodmanov Qodirjon Odilxanovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Toshibekova Munajat Xoshimovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Inamov Dilmirza Dedamirzayevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Madaminov Baxodir Sharifjonovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Urinov Bahrom Jamoliddinovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Sarimsakova Dilafruz Muhamadjonovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent
Axmedov Bexzod Madaminjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Rashidova Nodira Habibullayevna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Tibbiyot fanlari

Abdullayev G‘ofurjon Rahimjanovich, biologiya fanlari doktori, professor
Nurmatov Yodgormirza Xatammirzayevich, tibbiyot fanlari doktori
Abdullayev Ulug‘bek Ubaydullayevich, tibbiyot fanlari nomzodi
Mirzaolimov Mirzohid Mirzavaliyevich, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-8]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Ilmiy rahbar: Qodirov Ikrom Davronovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika kafedrasida dotsenti PhD
Email: iqodirov@gmail.com
Rahimova Sabrina Aziz qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika yo'nalishi talabasi
Buronova Gulmira Sobir qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika yo'nalishi talabasi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Nutq rivojlanishining asosiy bosqichlari, pedagogik yondashuvlar, o'yin faoliyati orqali nutqni rivojlantirish usullari va tarbiyachi-pedagoglarning roli ko'rib chiqilgan

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, nutq rivojlanishi, pedagogik yondashuv, o'yin faoliyati, kommunikativ kompetensiya.

Научный руководитель: Кодиров Икром Давронович
доцент, PhD, кафедра Педагогики, Чирчикский государственный педагогический университет
Электронная почта: iqodirov@gmail.com
Рахимова Сабрина Азиз кизи
студентка направления «Педагогика», Чирчикский государственный педагогический университет
Буронова Гульмира Собир кизи
студентка направления «Педагогика», Чирчикский государственный педагогический университет

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ РЕЧИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические основы развития речи детей дошкольного возраста. Рассмотрены основные этапы развития речи, педагогические подходы, методы развития речи через игровую деятельность и роль воспитателей-педагогов.

Ключевые слова: дошкольное образование, развитие речи, педагогический подход, игровая деятельность, коммуникативная компетенция.

Scientific Supervisor: Ikrom Davronovich Qodirov
Associate Professor (PhD), Department of Pedagogy, Chirchiq State Pedagogical University
Email: iqodirov@gmail.com
Rahimova Sabrina Aziz qizi
Student of the Pedagogy program, Chirchiq State Pedagogical University
Buronova Gulmira Sobir qizi
Student of the Pedagogy program, Chirchiq State Pedagogical University

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF SPEECH DEVELOPMENT IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract: This article analyzes the pedagogical foundations of speech development in preschool children. The main stages of speech development, pedagogical approaches, methods of speech development through play activities and the role of educators are examined.

Keywords: preschool education, speech development, pedagogical approach, play activity, communicative competence.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Nutq insonning shaxs sifatida shakllanishida, ijtimoiylashuvda va kognitiv rivojlanishida muhim rol

o'ynaydi. Olti-yetti yoshga kelib, bolalar nutqining barcha komponentlari - fonetik, leksik, grammatik tomonlari yetarlicha rivojlanadi va maktab ta'limiga tayyor bo'ladi.

Pedagoglarning bu yosh xususiyatlarini hisobga olgan hol-

da nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlarni rejalashtirishi va amalga oshirishi zarur. Har bir yoshdagi bolalarning individual xususiyatlarini ham e'tiborga olish muhimdir. Ba'zi bolalar tezroq rivojlanadi, ba'zilari esa sekinroq sur'atda nutqiy ko'nikmalarni egallaydi. Shuning uchun pedagog har bir bola bilan individual ishlash, uning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Nutq rivojlanishining kechikishi kuzatilgan bolalar bilan maxsus logopedik mashg'ulotlar olib borish, ularning nutqini to'g'rilash va rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha ishlar amalga oshirish zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda turli pedagogik yondashuvlar qo'llaniladi. Kommunikativ yondashuv nutqni muloqot vositasi sifatida rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuv doirasida bolalar real vaziyatlarda nutqdan foydalanishni o'rganadi. Pedagog bolalar o'rtasida muloqot muhitini yaratadi, ularni bir-biri bilan suhbatlashishga, o'z fikrini bildirish va boshqalarni tinglashga o'rgatadi. Faoliyatli yondashuv nutqni turli faoliyat turlarida rivojlantirishni nazarda tutadi. O'yin, mehnat, ta'lim faoliyati jarayonida bolalar nutqiy ko'nikmalarni tabiiy ravishda egallaydi. Bu yondashuv bolalarning faolligini oshiradi va nutqni amalda qo'llash imkoniyatini beradi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Pedagoglar bolalarning nutqiy rivojlanish darajasini baholab, individual dasturlar tuzadi va amalga oshiradi.

O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat turi hisoblanadi va nutqni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. O'yin jarayonida bolalar nutqiy ko'nikmalarni tabiiy ravishda rivojlantiradi. Syujetli-rolli o'yinlar bolalarning dialogik nutqini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Bolalar turli rollarni o'ynash jarayonida yangi so'zlarni o'rganadi, gaplarni to'g'ri tuzishni mashq qiladi, muloqot madaniyatini egallaydi. Didaktik o'yinlar orqali bolalarning lug'at boyligi kengaytiriladi, grammatik qurilishlar o'rgatiladi. Bu o'yinlar bolalarning fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Harakatli o'yinlar esa nutq va harakatni muvofiqlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Teatrlashtirilgan o'yinlar bolalarning ifodali nutqini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bolalar qahramonlar nutqini taqlid qilish orqali intonatsiya, temp, ohang kabi nutq vositalarini o'rganadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari maktabgacha ta'limda keng qo'llanilmoqda va nutqni rivojlantirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Multimedia vositalari, interaktiv doskalar, kompyuter dasturlari nutqni rivojlantirish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Elektron ta'lim resurslari bolalarning e'tiborini jalb qiladi va o'quv materialini yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi. Audio va video materiallar bolalarning eshitish va ko'rish analizatorlarini faollashtiradi, bu esa nutqni rivojlanishiga

ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Animatsion filmlar, elektron kitoblar, interaktiv o'yinlar bolalarning nutqiy faolligini oshiradi. Shu bilan birga, texnologiyalardan foydalanishda me'yorni saqlash muhim. Jonli muloqot va an'anaviy metodlar bilan zamonaviy texnologiyalarni uyg'un qo'llash eng yaxshi natija beradi.

Bolalar nutqini rivojlantirishda oila muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar bolaning birinchi o'qituvchilari hisoblanadi va ularning nutqi bolalar uchun namuna bo'ladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi va oila hamkorligi nutqni rivojlantirish samaradorligini oshiradi. Pedagoglar ota-onalarga bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha maslahatlar berishi, uyda bajariladigan topshiriqlar tavsiya qilishi kerak. Ota-onalar uchun seminarlar, treninglar tashkil etish orqali ularning pedagogik savodxonligini oshirish mumkin. Oilaviy kitob o'qish an'alarini rivojlantirish, bolalar bilan suhbatlashish, ularning savollariga javob berish nutq rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Ota-onalar bolalarning nutqiy xatolarini to'g'rilashda sabr-toqatli va izchil bo'lishi kerak. Oilada sog'lom muloqot muhiti yaratish, bolalarni tinglash va ularning fikrini hurmat qilish nutqiy faollikni oshiradi.

Nutqni rivojlantirish jarayonida badiiy adabiyotning roli beqiyosdir. Ertaklar, she'rlar, topishmoqlar, maqollar bolalarning lug'at boyligini oshiradi, nutqni ifodali qiladi. Kitob o'qish bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantiradi, diqqatini jamlashga o'rgatadi. Hikoyalarni qayta aytib berish, rasmlar bo'yicha hikoya tuzish, ertaklarni sahnalashtirish kabi faoliyatlar bolalarning bog'liq nutqini rivojlantiradi. Pedagog bolalarga kitob sevgisini singdirishi, ularni mustaqil kitob o'qishga qiziqtirishi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasalarida kitob burchaklari tashkil etish, bolalarning yoshiga mos kitoblar tanlash muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda tarbiyachi-pedagogning roli katta. Pedagog o'z nutqi bilan bolalarga namuna bo'lishi, to'g'ri talaffuz, boy lug'at, grammatik jihatdan to'g'ri gaplar bilan nutq qilishi kerak. Pedagog bolalarning nutqiy faolligini rag'batlantirishi, ularni ko'proq gapirishga undashi zarur. Bolalarning xatolarini to'g'rilashda ehtiyotkorlik bilan ish ko'rish, ularning o'ziga ishonchini yo'qotmaslik muhim. Pedagog har bir bola bilan individual ishlash, uning nutqiy rivojlanish xususiyatlarini o'rganish va shunga mos metodlarni qo'llashi kerak. Doimiy kuzatish, nutq rivojlanishini baholash va ota-onalar bilan hamkorlik qilish pedagog faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Nutqni rivojlantirishda muhit omilining ahamiyati katta. Maktabgacha ta'lim muassasasida boy nutqiy muhit yaratish zarur. Xonalarda turli ko'rgazmali qurollar, rasmlar, plakatlarni bo'lishi kerak. Bolalar bilan doimiy suhbatlashish, ularning savollariga javob berish, yangi tushunchalar bilan tanishtirish nutqiy muhitni boyitadi.

Guruhda do'stona, samimiy muhit yaratish bolalarning erkin muloqot qilishiga yordam beradi. Pedagoglar bolalar o'rtasida nutqiy o'zaro ta'sirni tashkil etishi, ularni birgalikda o'yin va faoliyatga jalb qilishi kerak. Nutqiy muhitning sifati bolalarning nutq rivojlanish tezligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar nutqini rivojlantirishda maxsus mashg'ulotlarning o'рни alohida. Nutqni rivojlantirish mashg'ulotlari muntazam ravishda o'tkazilishi kerak. Bu mashg'ulotlarda tovushlar ustida ishlash, lug'at boyligini oshirish, grammatik qurilishlarni o'rgatish, bog'liq nutqni rivojlantirish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar qiziqarli, o'yinli tarzda tashkil etilishi, bolalarning yoshiga mos bo'lishi kerak. Har bir mashg'ulot aniq maqsad va vazifalar asosida rejalashtiriladi. Pedagoglar turli metodlar va vositalardan foydalanib, mashg'ulotlarni samarali tashkil etishi zarur. Mashg'ulotlarda individual va guruhli ish shakllarini uyg'un qo'llash yaxshi natija beradi.

Nutq rivojlanishida artikulyatsion gimnastikaning ahamiyati katta. Til, lab, jag' mushaklarini rivojlantiruvchi maxsus mashqlar bolalarning tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishiga yordam beradi. Artikulyatsion gimnastika har kuni o'tkazilishi kerak. Bu mashqlar o'yin shaklida, qiziqarli tarzda tashkil etiladi. Nafas olish mashqlari ham nutq rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri nafas olish nutqning ravon va ifodali bo'lishini ta'minlaydi. Pedagog bolalarga nafas olish texnikasini o'rgatishi, maxsus mashqlar orqali nafas olish mushaklarini mustahkamlashi kerak.

Nutqni rivojlantirishda diagnostika va monitoring muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar bolalarning nutq rivojlanish darajasini muntazam ravishda tekshirishi, kuzatishi kerak. Maxsus diagnostik metodikalar yordamida bolalarning lug'at boyligi, grammatik ko'nikmalari, bog'liq nutqi baholanadi. Diagnostika natijalari asosida har bir bola uchun individual rivojlantirish dasturi tuziladi. Monitoring orqali nutq rivojlanishidagi o'zgarishlar kuzatiladi, pedagogik ishning samaradorligi baholanadi. Diagnostika va monitoring natijalari ota-onalar bilan muhokama qilinadi, birgalikda ish rejasi tuziladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u pedagogik mahorat va izchil ishni talab qiladi. To'g'ri tanlangan pedagogik yondashuvlar, zamonaviy metodlar va texnologiyalardan foydalanish, oila bilan samarali hamkorlik bolalar nutqining muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlaydi. Nutqni rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan tizimli ish bolalarning kelgusidagi ta'lim faoliyati uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida bu masalaga alohida e'tibor qaratish, pedagoglarning malakasini doimiy oshirib borish, zamonaviy metodikalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish zarur. Bolalar nutqini rivojlantirish nafaqat ta'lim vazifasi, balki jamiyatimiz kelajagi uchun muhim investitsiya hisoblanadi. Har bir bola o'z fikrini erkin ifoda eta oladigan, muloqotga kirishadigan, o'z nutqi orqali dunyoni o'rganadigan shaxs sifatida voyaga yetishi uchun maktabgacha ta'lim davrida puxta asos yaratilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: TDPU, 2019. – 286 b.
2. Hasanboyeva O., Ibragimova Z. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2020. – 312 b.
3. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 245 b.
4. Yo'ldosheva D.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 198 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta'lim – sifatli ta'lim va tarbiyaning poydevori // Xalq so'zi gazetasi. – 2022. – № 234. – 2-b.

N.Abbasova, Sh.Adxamova.....	
Oliy ta'lim talabalari o'rtasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish metodikasi.	
I.Raxmonov	565
Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish holati: amaliy tadqiqot, natijalar va tavsiyalar.	
D.Gulboyev	569
Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari.	
A.Boymirzayev	572
Zichlik funksional nazariyasi asosida VESTA, Burai va Quantum ESPRESSO dasturlarining fizikadagi o'rni va qo'llanilishi.	
D.Xajibayev, I.Jaksimuratov, A.Jalekeshov.....	577
Grammar teaching approaches in primary efl (5th and 6th grades): a comparative study of deductive and inductive methods.	
X.Azamatova.....	582
Texnologik jarayonlarni modellashtirishning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari.	
Sh.Shoyimov	588
Tibbiy ta'limda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari.	
G.Muxammadova.....	592
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari.	
S.Xabibullayeva.....	596
O'quvchilarda internet savodxonligi madaniyatini tarbiyalash va rivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlarni yaratish.	
M.Dedaxonova	600
Alaliya nutq nuqsonining sabablari, belgilari va bartaraf qilish usullari.	
Sh.To'reniyazova	603
Klax pedagogikasining zamonaviy ta'limdagi ahamiyati va amaliy qo'llanilishi.	
N.Adilova.....	608
Raqamli axborot muhitida yoshlarga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy tahdidlar va xatarlarni tahlil qilish.	
B.Axmedov.....	612
Tizimli yondashuvga asoslangan holda fizika fanini kimyo ta'lim yo'nalishi talabalariga o'qitish metodikasi.	
D.Begmatova, O.Iskandarov, B.Yakubova, O.Suvonova.....	617
Talabalarining xalq hunarmandchiligi bo'yicha ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish holati.	
S.Esanova	622
"Cheksiz chuqur potensial o'ra" mavzusini raqamli texnologiyalar yordamida o'qitish metodikasini takomillashtirish.	
E.Muxtarov.....	625
Globallashtirish davrida kommunikativ madaniyat muammolari.	
N.Vakilova	632
Yuqori sinf o'quvchilarini jismoniy tayyorgarlik darajalarini rivojlantirishda xorijiy tajribalar taxlili.	
G'.Abdullayev	637
Geografiya darslarida gis va raqamli xaritalar orqali fazoviy tafakkurni rivojlantirish.	
D.Davlatova	641
Matnni modellashtirishni o'rgatish tamoyillari. O'qitishning umumiy didaktik tamoyillarini amalga oshirish.	
M.Hamrayeva	645
Forsight modellashtirish va qaror qabul qilish kompetensiyalarining integratsiyasi.	
I.D.Qodirov, O.S.Qosimova, M.A.Ochilova.....	649
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik asoslari.	
I.D.Qodirov, S.A.Rahimova, G.S. Buranova.....	652
O'quv mashg'ulot guruxi futbolchilarini ampulasi bo'yicha jismoniy rivojlanganligini tuzulishi.	
K.Shokirjonov	655
Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari.	
J.Karimov	660
"Molekulyar fizika" bo'limini fizika va kimyo fanlarining integratsiyalashgan holda o'qitish zarurati.	
M.Ergasheva, E.Vazirova	663
Tarix fanini o'qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha xorijiy tajribalar.	
J.Muhammadiyev	666
Tarbiyaviy faoliyatning kompetensiya shakllanishidagi o'rni: axloqiy, madaniy va ijtimoiy tarbiya jarayonida umumkasbiy ko'nikmalarning integratsiyasi.	
	670